

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2025
FILOLOGIYA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.G.Sabirdinov

O'zbek tarixiy romani: Oybek va Qodiriy 6

G.M.Oripova

Aylor ijodkorlar she'riyatida daraxt obrazi tasviri 9

M.A.Jo'rayeva

Munavvar Qori Abdurashidxonov ijodida safar janri 13

G.Muhammadjonova

Hayot haqiqati, tarixiy haqiqat va badiiy idrok 17

И.А.Эшонкулов

Tavsiysi mushahhasi tazkiraҳои Ҳашмати Бухорай 21

B.X.Murtazoyev, F.O.Hafizova

“Bobotog”essesida peyzaj: flora tasvirida badiiyilik 28

И.А.Эшонкулов, З.П.Аҳмадҷонова

Ситоиши хирад ва хирадгустарй дар “Шоҳнома”-и Ҳаким Фирдавсий 34

D.T.Musayeva

Elizabet Gaskell ijodiga nazar 39

Н.Н.Қаюмов

Muammo shinoxti sanъati tashxis dар поэтикан мумтози форсу тоҷик 42

Sh.T.Ibragimov

“Babur the tiger” romani o'zbekcha tarjimasida metafora ifodasi 47

J.T.Ibragimov

“Qutadg'u bilig” istioralarining poetik o'ziga xosliklari xususida chuqr mulohaza 55

A.A.Akbarov

Vatanga muhabbatning lirik ifodasi 61

TILSHUNOSLIK

Sh.M.Iskandarova

Farg'ona davlat universiteti tilshunosligi: kecha va bugun 66

Г.М.Хошимов, М.Г.Хошимов, Н.А.Абдуллаева, Д.Ш.Назарова, Д.А.Ахмедова

Актуальные проблемы терминологического аппарата и метаязыка исследования пословиц и поговорок 71

Z.V.Alimova

Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonida sifat turkumiga oid forsiy leksemalar xususida 81

A.B.Uralov

Ayrim kengaygan shakllar taraqqiyoti hamda ularda nomutanosibliklar 86

Z.A.Davlataliyeva

Ingliz tili darslarida talabalarning o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishning mazmuni, shakli va vositalari 90

Н.А.Абдуллаева

Сопоставительное изучение провербем, вербализующих концептуальную оппозицию «ум/глупость» в английском и русском языках 95

Н.А.Отахонова

Проблемы общей теории и классификации лингвокультурой 100

B.B.G'apporov

Ingliz gazeta sarlavhalarining o'ziga xos xususiyatlari hamda ularda fe'l komponentli kollokatsiyalarning qo'llanilishi 106

D.M.Yuldasheva, Z.I.Usmonova

Siddiq Mo'minning "Buyuk Temur avlodi" nomli she'rida pretsedent nom tahlili 112

N.Fidan

Ellipsis in English text linguistics 115

M.O.Qulmamatova

Ingliz va o'zbek tillaridagi “boylik/wealth va kambag'allik/poverty” konseptlarining o'xshashlik va farqli jihatlari 120

N.X.Boboqulova

Ingliz va o'zbek tillarida head/bosh somatik komponentli maqollarning konseptual tahlili 124



UO'K: 811.512.133

**SIDDIQ MO'MINNING "BUYUK TEMUR AVLODI" NOMLI SHE'RIDA PRETSEDENT NOM
TAHLILI**

**ANALYSIS OF THE PRECEDENT NAME IN SIDDIQ MOMIN'S POEM "THE GREAT
GENERATION OF TIMUR"**

**АНАЛИЗ ПРЕЦЕДЕНТНОГО ИМЕНИ В ПОЭМЕ СИДДИКА МОМИНА «ВЕЛИКОЕ
ПОКОЛЕНИЕ ТИМУРА»**

Yuldasheva Dilafruz Maxamadaliyevna¹ 

¹Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Usmonova Ziyodaxon Ilxomjonovna² 

²Farg'ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya

Ushbu maqola tilshunoslikda antroponimlarni o'rganish sohasidagi ilmiy qarashlarga asoslangan holda shoir Siddiq Mo'minning "Buyuk Temur avlodii" she'rida qo'llangan pretsedent nomlar tahliliga qaratilgan.

Abstract

This article is focused on the analysis of the precedent names used in the poem "Our great generation of Timur" by the poet Siddiq Momin, based on scientific views in the field of anthroponyms in linguistics.

Аннотация

Данная статья посвящена анализу прецедентных имен, использованных в стихотворении «Наше великое поколение Темура» поэта Сиддика Момина, на основе научных взглядов в области антропонимов в лингвистике.

Kalit so'zlar: antroponim, pretcedent nom, pretcedent birliklar, onomastika, lingvomadaniy, stereotip

Key words: anthroponym, precedent name, precedent units, onomastics, linguistic culture, stereotype

Ключевые слова: антропоним, прецедентное имя, прецедентные единицы, ономастика, лингвокультура, стереотип

KIRISH

Har bir millat va madaniyatda ism qo'yish odatlari va marosimlari o'ziga xosdir. O'zbek xalqida farzandga beriladigan ism orqali ota-onalar o'zlarining orzu-istiklarini ifodalashadi. Onomastikada kishi ismlari **antroponimlar** deb nomlanadi. Ismlar jamiyatdagi ijtimoiy, madaniy, etnik va diniy omillarga ta'sir ko'rsatadi. Antroponomika, shuningdek, ismlarning ma'naviy va madaniy ahamiyatini, ular bilan bog'liq an'ana va urf-odatlarni o'rganadi. Dinda, masalan, ism qo'yish marosimi o'zining alohida e'tiboriga ega bo'lib, ism odamning ruhiyatini aks ettiradi. **Antroponomika** – bu odamlar ismlarini, familiyalarini, laqab va taxalluslarini o'rganadigan onomastikaning bir bo'limidir. Antroponomika so'zi yunoncha “**antropos**” (odam) va “**onoma**” (ism) so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, u kishilarning ism va ism qo'yish bilan bog'liq bo'lgan parcha lingvistik va ekstalingvistik xususiyatlarni o'rganadi. Kishi ismlari, ya'ni **antroponimlar** – bu insonni boshqalardan farqlash, ajratish uchun beriladigan maxsus nomlardir. Kishi ismlari doimo o'z tarixiga, madaniyatiga va jamiyatiga ta'sir ko'rsatib, insonning hayoti, ruhiyati va o'zligini aks ettiradi. Ism qo'yish marosimi har doim katta ma'suliyat bilan bog'liq bo'lib, bu nafaqat shaxsning hayotiga, balki uning taqdiri va baxtiga ham ta'sir qiladi. Ernest Begmatovning ta'kidlashicha, ism qo'yish odati – bu biror shaxsni o'zgalardan ajratish ehtiyojlardan kelib chiqqan. Avval ism, keyin esa familiya va boshqa kishi ismlarining turli shakllari va ularning insonlar orasida farqlashni ta'minlashga xizmat qiladi. Shu tarzda, antroponomika ilmiy jihatdan inson ismlarini o'rganishga, ularning o'zgarishini, jamiyatdagi o'rnini aniqlashga qaratilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

E.A. Begmatov o'zbek antroponomikasi bo'yicha salmoqli ishlar olib borgan. Uning ilmiy izlanishlari, o'zbek ismlarining leksikasi, imlosi va etimologiyasi haqida keng ma'lumotlar taqdim etadi. Uning ismshunoslikka oid "Nomlar va odamlar" (1966), "Kishi nomlari imlosi" (1970), "O'zbek ismlari imlosi" (1972) «Литературные имена и фамилии узбекских авторов в русской транскрипции» (1981), "O'zbek ismlari" (1992, 2000, 2007), "Ism chiroyi" (1994) kabi asarlari o'zbek nomshunoslik faniga ulkan hissa qo'shgan.

Sir emaski, bugungi globalizatsiya jarayonlari asnosida, insoniyat taraqqiyotining bir qator umumiylar xususiyatlarga ega bo'lishi, milliy o'zlikni saqlash va milliy qadriyatlarning ahamiyatini qayta anglash zaruratini keltirib chiqaradi. Milliy o'zlikni saqlab qolish va rivojlanadirish masalasi tilshunoslikda muhim o'rinni tutadi. Til milliy-lingvomadaniy jamiyatning taraqqiyotini aks ettiruvchi "ko'zgu" sifatida nafaqat jamiyatdagi o'zgarishlarni ko'rsatadi, balki tilning o'zi ham jamiyatning ijtimoiy va madaniy sharoitlariga ta'sir qiladi va ular bilan o'zgaradi. Bu jarayonni tilshunoslar "intertekstuallik" va "pretsedent birliklar" nazariyasi orqali izohlashadi, chunki til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro aloqalar va ko'priklar aynan shu birliliklarda namoyon bo'ladi. Pretdendent birliklar – bu lingvomadaniy jamiyatdagi umumiylar keng tarqalgan, ma'lum bir jamiyat a'zolariga yaxshi tanish bo'lgan, madaniy, tarixiy, diniy yoki badiiy manbalar bilan bog'liq nomlar, iboralar va shakllardir. Ular tilni va madaniyatni anglashda muhim rol o'ynaydi, chunki ular o'zaro muloqotda tilning ma'naviy va madaniy qiyimatini ko'rsatadi. Pretdendent birliklar faqatgina tarixiy shaxslarning yoki madaniy manbalar nomlari bilan cheklanib qolmaydi, balki ular dinamik ravishda zamon o'zgarishiga moslashib, yangi madaniy shakllar va asoslar bilan boyib boradi. Pretdendent birliklar, shuningdek, millatning mentalitetini va tilshunoslikdagi xususiyatlarini ifodalovchi muhim bir vositadir. Y.N. Karaulov rus tilshunoslik va lingvistik tadqiqotlar sohasida ilgari surilgan pretdendent birliklar nazariyasining asoschilaridan biridir. Uning "pretdendent birlik" atamasini fanga birinchi bo'lib kiritgani alohida ahamiyatga ega. Karaulov pretdendent birliklarni "ma'lum shaxsnинг o'zgarmas va shaxsiy xarakterdagи, ya'ni unga yaxshi tanish bo'lgan va uning keng doirasini, shu jumladan, uning o'tmishi va zamondoshlarini ham qamrab oluvchi, va nihoyat, ushbu til sohibining diskursida qayta-qayta murojaat etuvchi bilish va hissiy munosabatlarida juda ahamiyatlari birlik" sifatida tavsiflagan [Karaulov, 1987;267].

Karaulovning bu ta'rifi pretdendent birliklarning milliy madaniyat va til tizimlarida chuqur ildiz otganligini va ular nafaqat til, balki mentalitet va ijtimoiy ongni aks ettirishdagi ahamiyatini ko'rsatadi. Pretdendent birliklar, ularning so'zlovchilari tomonidan umumiylar ravishda tanilgan va keng tarqalgan, jamiyatning o'ziga xos va madaniy konsepsiyalarini tashkil etadi. Shu sababli ular nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik va psixolingvistika kabi sohalarda ham tadqiq qilinadi. Karaulovning pretdendent birliklarga bo'lgan yondashuvi ularning dinamik xususiyatiga ham urg'u beradi. ularning konsepsiysi va mazmuni o'zgarishi mumkin, ammo ularning madaniy ahamiyati va asosiy roli doimo saqlanadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Pretdendent birliklar o'zaro munosabatlarni qurishda, muloqotda va ijtimoiy muloqotda muhim rol o'ynaydi, chunki ular lingvomadaniy jarayonlarni ifodalaydi va ular orqali jamiyatlar o'rtasidagi aloqalar va o'zaro tushunish o'rnatiladi. Misol uchun, shoir Siddiq Mo'minning 2024-yilda nashrdan chiqarilgan "Sizga tutdim nazmiy gulasta" nomli she'riy to'plamida A. Temur, A. Navoiy, Z. M. Bobur, Burhoniddin ar-Roshidoni kabi pretdendent nomlar keltiriladi. Jumladan, ijodkorning "Buyuk Temur avlodи" nomli she'rida tarixiy, falsafiy va madaniy mavzular birlashtirgan va o'zbek xalqining g'ururi, ajdodlarga hurmat, ilm va bilimga e'tibor berish zarurati haqida so'z yuritilgan.

Sarkarda bobomiz bor,

Shundan g'urur, iftixon.

Adolat – bizga shior

Amir Temur avlod!

Shoir misralarda xalqning yuksalishi va buyuligini tasvirlashga xizmat qilgan hamda "o'zlikni anglamоq" tushunchasi bilan assotsiativ bog'liqlikni hosil qiladigan "ilm", "buyuk", "adolat", "shukr", "g'urur", "iftixon", "g'oja" kabi so'zlardan, ularga kontekstual zidlikni hosil qilgan, ijtimoiy inqiroz yoki zaiflikni anglatuvchi "halokat", "ofat", "bo'shliq" kabi so'zlardan mohirona foydalanadi.

Shuningdek, she'rdagi lisoniy birliklarning lingvomadaniy xususiyati stereotip shaklida namoyon bo'ladi: "qora qumg'on" (epitet), "belbog'ida non", "do'ppisida suv tashigan" kabi iboralarda o'zbek xalqiga xos insonparvarlik, mehmono'stlik kabi fazilatlar namoyon bo'lgan.

Qaynar qora qumg'oni,

Belbog'ida bor noni.

Qorday toza vijdoni,

Buyuk Temur avlod!

She'rda uslubiy – stilistik vosita bo'lgan takror "Buyuk Temur avlod" iborasi tarzida she'rning har bir qatorida takrorlanib, o'z avlodining tarixiy yuksalishiga urg'u bergan va she'rning markaziy go'yasi – o'z xalqining va uning ajdodlarining buyukligini, shaxsiy va milliy g'ururini ta'kidlash maqsad qilingan. Shoир bo'shlik va bo'shliq paronimlaridan unumli foydalangan holda badiiy, ma'naviy va pedagogik jihatdan ham ta'sirchan nasihatni beradi:

Aslo qilmagin bo'shlik,

Paydo bo'lmasin bo'shliq.

Toleing bo'lsin to'liq,

Buyuk Temur avlod!

She'rning falsafiy va ma'naviy mazmuni haqida gapirganda, Siddiq Mo'min o'z she'rida milliy qadriyatlarni va ajdodlarga bo'lgan hurmatni yuksak baholaydi. "Ajdod ruhi qo'llagan", "adolat – bizga shior" kabi misralar, milliy birlik, adolat va xalqning tarixiy merosiga hurmatni o'zida mujassam etadi. She'rning oxirida esa o'z yurtiga bo'lgan sadoqat va xalq kelajakka bo'lgan ishonchi aks etgan. "Omon bo'lsin yurtboshimiz" iborasi ham jamiyatning umumiyligi taraqqiyoti va yuksalishi uchun har bir insonning o'z hissasini qo'shishi zarurligini ta'kidlaydi.

Uch mingdan oshdi yoshing,

Hech so'nmasin quyoshing,

Omon bo'lsin Yurtboshing,

Buyuk Temur avlod!..

XULOSA

Shoir S.Mo'minning birgina "Buyuk Temur avlod" nomli she'rining lingvomadaniy tahlilidan ayon bo'ladiki, pretsedent birliklar va ularning lingvomadaniy ahamiyati zamonaviy tilshunoslikda muhim o'rin tutadi. Ular milliy o'zlikni anglash va saqlab qolish, jamiyatning mental qiyofasini tushunish, til va madaniyat o'tasidagi o'zgaruvchan aloqalarni o'rganish uchun vositalar hisoblanadi. Pretsedent birliklar yordamida jamiyatning o'ziga xos dunyoqarashini, milliy mentalitetini va tarixiy xotirasini o'rganish mumkin. Shu sababli, pretsedent birliklarni o'rganish bugungi kunda tilshunoslikdagi eng dolzarb va ahamiyatli masalalardan biridir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абу Наср Фаробий, Шеър санъати . – Тошкент: F. Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1979.
- 18-б
2. Миртохиев М. Ўзбек тили семасиологияси. Тошкент: "Мумтоз сўз" -2010, 92-б
3. Кўнгурор Р. Ўзбек тилида тасвирий сўзлар. – Т.: Фан, 1966 – Б.76.
4. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Qurbanova M., Boqiyeva G Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent-2005, B-113
5. Yo'ldoshev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili. Toshkent -2008, B - 87
6. A. Madvaliyev tahriri ostida O'TIL , Toshkent 582-bet
7. Siddiq Mo'min. Biomaydon. "Farg'ona" nashriyoti – 2022.
8. Siddiq Mo'min. Mendan mehr kutayotganlar. "Farg'ona" nashriyoti – 2007
9. <https://cyberleninka.ru/article/n/pretsedent-birlik-va-pretsedent-nom-ularning-o-zbek-lingvomadaniy-jamiyatidaqo'llanishi>
10. <https://www.intereuroconf.com/index.php/MSRAIDP/article/download/1444/1160/1158>